"Ketring" mas'uliyati cheklangan jamiyati xonalarni dezinseksiyasi bo‘yicha xizmatlarga tanlov o‘tkazadi.

Ishlarning asosiy ro‘yxati.

Uchib yuruvchi va sudralib yuruvchi hasharotlarga qarshi ishlov berish.

Umumiy ishlov berish maydoni – 1715 kvadrat metr.

To‘lov shartlari:

Avans to‘lovining summasi: 15% miqdorida; Avans to‘lovining muddati: 10 kalendar kuni davomida; Qolgan 85% pul vositalarini o‘tkazilish muddati - ishni bajarilish dalolatnomasini imzolanganidan keyin. To‘lov valutasi – milliy valuta – so‘m.

Yetkazib berish sharti

Majburiy shartlar:

- Faoliyat litsenziyaga ega bo'lishi kerak (agar kerak bo'lsa);
- Maxsus toifalangan davlat ob'ektlarida ishlash uchun kirish imkoniyati, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining aviatsiya korxonalarida va aeroportda kirishni boshqarish va ichki rejimlarni tashkil etish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish.
- Aeroportda aviatsiya xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.
- Pudratchining Shartnomada ko'rsatilgan yuridik manzilida ofis bo'lishi kerak;
- Ishlarni bajarish uchun tegishli hujjatlar mavjudligi.
- Pudratchi taqdim etilgan xizmatlar uchun narxlar ro'yxati yoki narxlar ro'yxatini taqdim etadi.
- Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-I-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi;
- Guvoxnoyga biriktiring. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnomaning majburiy ravishda mavjudligi;

Alohida shartlar:

Yetkazib beruvchi O‘zbekiston bozorida ishlashi shart va ro‘yxatdan o‘tgan ofis bilan shahar telefoniga ega bo‘lishi kerak.

Konkursda ulgurji savdoni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan, ishlab chiqaruvchi-zavodlar, chet el va mamlakatimizning firmalari va tashkilotlari ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish uchun cheklovlar:

Tanlovda quyidagilarga ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:

- Qayta tashkil etish holatida bo‘lgan, faoliyati tugatilgan yoki bankrot holatdagi, barcha zarur bo‘lgan hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim eta olmagan tashkilotlar va firmalar;
- Sudlov yoki arbitraj tekshiruvlari holatida bo‘lgan, ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni tegishlicha bajarmagan buyurtmachilar bilan;
- Tijorat va moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha konkurs komissiyasi talablariga javob bermaydiganlar bilan.

Tijorat takliflari quyidagi manzilda qabul qilinadi:

O‘zbekiston, 100028, Toshkent shahri, I.A.Karimov nomidagi «Toshkent» Xalqaro aeroporti

«Ketring» MChJning direktor o‘rinbosari B.T. Azimovga

Ma’lumot uchun telefon: 215-61-34, tel/faks: 255-25-68

E-mail: dogovoratashkent@mail.ru

Tijorat takliflari 2019-yil 02-dekabrgacha pochta, faks, elektron pochtasi orqali qabul qilinadi.

Download PDF